

Yusuf alayhissalomdan so'ng



14:00 / 27.06.2021 10649

Oradan bir muncha vaqt o'tib Ya'qub alayhissalom hayot bilan vidolashdi. Yusuf alayhissalom, umuman butun Misr qattiq mahzun bo'ldilar.... Ya'qub alayhissalomni dafn etgan Misr ahli xuddi otalaridan ajragandek bo'lib qoldilar...

Yana bir qancha vaqt o'tib Yusuf alayhissalom ham vafot qildilar. Ha, bu kun misrliklar uchun haqiqatan og'ir bo'ldi. Yusufga butun mamlakat motam tutdi. Misr ko'z yoshlarga cho'mildi... Odamlar barcha qayg'u musibatlarni unutib, go'yo musibatning achchiq ta'mini shu kungacha sira totmagandek edilar...

Yusufni ham dafn qildilar. Hamma bir-biriga ta'ziya bildirar edi. Chunki, Yusuf xususida musibat barchaga barobar ta'sir qilgandi. Har-bir kichik otasini va har-bir katta inichini yo'qotganedi. (Ya'ni, Yusuf kattalarga aka, kichiklarga ota bo'lib qolgan edi). Odamlar Yusuf alayhissalom inilari va farzandlari huzuriga borib, ta'ziya bildirardilar: Ey Ulug'lar! Bugun sizlarning qayg'u va xasratlaringiz

biznikidan ulkan emas! Bugun biz mehribon og'amizni, g'amxo'r xojamizni, odil podshohimizni tuproqqa topshirib keldik. U bandalarni rohatlantirar va yurtidan zulmni bartaraf qilar edi. U kichiklarimizni kattalar tazyiqidan, ojizlarimizni kuchlilar zulmidan himoya qilardi. Mazlumlarga yordam berar, qo'rqqanlarni qanoti ostiga olar va och-nahorlarni to'ydirar edi.

U bizni haqqa boshladi. Allohni tanishga bizni da'vat qildi. U biz tomon kelishidan avval biz Allohni ham, oxiratni ham bilmas edik. Ocharchilik yillarida u bizga ko'mak bergan edi. Boshqa yurtlarda odamlar ochlikdan tirishib jon berayotgan bir paytda bizlar yeb to'yar edik. Biz o'zimizning saxovatli podshohimizni aslo unutmaymiz. Siz azizlarning uning inilari va xonadon ahli ekaningizni ham hamisha yodimizda turadi. Sizlar Misrga kelgan kun podshohimiz Yusuf qanchalar quvongan edi-ya! Podshohimiz quvonganini ko'rib bizlar ham behad shod bo'lgan edik. Mana shu shahar sizlarning ham shahringiz! O'rtadagi muomala-munosabatlarimiz xuddi podshohimiz hayotlik paytidagidek davom etaveradi!

Abul Hasan Ali Hasan an-Nadaviy

Tarjimon Anvar Ahmad